

## TALABALARGA SIFATLI TA'LIM BERISHDA BILIM KO'NIKMA VA MALAKALRINI SHAKILLNTIRISH

Buronova Sitora Tohir qizi.

*Buxoro Innovatsiyalar universiteti*

*Ikkinchı kurs magistr*

**Ongarov Mansurbek Bayrambekovich**

*Alfraganus universiteti*

*"Pedagogika va psixologiya" kafedrası*

*v.b., dotsenti pedagogika fanları*

*bo'yicha falsafa doktori PhD*

**Annatatsiya:** *Mazkur maqolada talabalarga sifatli ta'limga berishda ularning o'zlashtirish darjasini qanday jarayonlarda mukammal tarzda qabul qilish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

*O'qituvchi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida yaxshi tayyorlangan bo'lishi fikrlarini aniq va to'g'riliqi hamda o'quvchi mehnat harakatlarining aniqligini doimo ta'kidlab turishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, halol mehnat normalariga e'tibor berish kerakligini va bu ularning ijodiy mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi mazkur maqolaning asosini tashkil qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ilm-fan, taraqqiyot, o'qituvchi, talaba, mehnat, jamiyat, davr, dars, ruhlantirish, mustaqil, buym, ilg'or.*

**Аннотация:** В данной статье показаны способы идеального принятия уровня студентов в качественном образовании.

Учитель всегда должен подчеркивать ясность и правильность своих мыслей и точность работы ученика в ходе уроков и внеклассной деятельности. В основу данной статьи положено то, что учителю следует обращать внимание на нормы честного труда в беседах с учащимися, а это послужит формированию у них навыков творческого труда.

**Ключевые слова:** наука, развитие, учитель, ученик, труд, общество, период, урок, вдохновение, самостоятельный, продукт, прогрессивный.

**Annotation:** This article shows ways to ideally accept the level of students in quality education.

The teacher should always emphasize the clarity and correctness of his thoughts and the accuracy of the student's work during lessons and extracurricular activities. The basis of this article is that the teacher should pay

*attention to the standards of honest work in conversations with students, and this will serve to develop their creative work skills.*

**Key words:** science, development, teacher, student, work, society, period, lesson, inspiration, independent, product, progressive.

Hozirgi ilm-fan rivojlangan davrda o'qituvchilarda o'zini-o'zi tanqidiy baholash va kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish kelgusi ishlarini rejali boshlashga undaydi. Unda, o'qituvchi tayyor bilmni tekshirib ko'radi va uni o'quvchilarning o'zlariga mustaqil ravishda baholashni taklif qiladi. Ilg'or o'qituvchilar ish tajribalari bunday usul muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilar tayyorlangan buyumlarning sifatini aniqlashga doir muntazam mashq qilishlari, ularda o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalari, o'zini-o'zi mehnatini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi. Buning uchun, o'qituvchi-murabbiy dam olish tanaffuslari vaqtida, mashg'ulotlar yakunida, ish natijalari tahlilidan keyin, o'quvchilarga mehnat ilg'orlari, fidoyilari foydalanayotgan usullar haqida gapirib berishi kerak bo'ladi. Bunday suhbatlar uchun mahalliy korxonalardagi ustalar hayotini namuna qilib ko'rsatish ma'qul hisoblanadi.

Hozirgi zamon sharoitida ishlab chiqarish sohalarining kengayishi, xo'jalik munosabatlarining murakkablashuvi, fan-texnika rivojining jadallahishi tufayli ish vaqtining har bir daqiqasi g'animatdir. Shunday ekan, ichki tartib-qoidalarga, mehnat intizomiga qat'iy amal qilish zarurligini maktab ta'lim-tarbiyasidan boshlash kerak bo'ladi. Buning uchun, mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bunda, o'quvchilarga tushuntirish, ishontirish, rag'batlantirish, namuna ko'rsatish kabi metodlaridan foydalanib, o'qitish bilan birga ularning ishlariga yuqori talabchanlik bilan yondashish ham kerak bo'ladi. O'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida chetlashishlar bo'lganda, ijobiy misollar bilan u yoki bu hollarda o'zini qanday tutishi kerakligini tushuntirish (ko'rsatish) kerak. O'quvchilar o'qituvchining tizimli va qat'iy talablarini bajarish natijasida, ular turli qoidalari va ish usullarini aniq va ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular, ish maromini saqlashga, ish o'rnini namunali tutishga, o'quv qurollarini ehtiyoj qilishga odatlanadilar. O'qituvchilarni mustaqil mehnat va turmushga tayyorlashning muhim shartlaridan biri, bu intizomni yo'lga qo'yish va uni asta-sekin saqlashga erishib borishdir.

O'qituvchilarga nisbatan doimiy izchil talab chanlik ko'rsatishda, rahbar hodimnining muntazam irodasi bo'lmosg'i lozim.

O'qituvchilarda jamiyat va shaxslar mulkiga g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalashni yangi metodlarini o'rgatish, ularga nisbatan ongli munosabatda

bo'lish, ularda ijtimoiy va shaxsiy mulkka nisbatan tejamkorlik munosabatini inobatga olish darkor. Shuningdek, ular mehnat qilish arayonida o'zlarini va atrofdagilarni hurmat qilishi, o'z irodasi va xarakterini tarbiyalashi muhim o'rinn tutadi.

O'qituvchi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida yaxshi tayyorlangan bo'lishi fikrlarini aniq va to'g'riliqi hamda o'quvchi mehnat harakatlarining aniqligini doimo ta'kidlab turishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, ularga halol mehnat qilishning ahamiyatini uqtirishi, ruhlantirishi va bu ularning ijodiy mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bizning jamiyatimizda mehnat go'zalligi ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bilan uzviy bog'langan.

Yuksak mehnat madaniyati mehnat kishilarining ajralmas sifatidir. Ushbu jarayonni o'quvchilarga mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish hamda boshqa umumta'lim fanlarini o'qitishda tarbiyalab borish lozim. Mehnat madaniyati tushunchasiga mehnat shart-sharoitlari, go'zalligi, qulayligi, mehnat jarayoni, muomala madaniyati va boshqalar kiradi.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishda o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligi sohalaridan foydalanish uchun eng maqbul mashg'ulotlar turkumi ushbu mashg'ulotlar hisoblanadi. Chunki, xalq hunarmandchiligi sohalarini bajarishda asosiy mashg'ulotlar qo'l mehnati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir.

Sifatli ta'lim berishda o'qituvchilarning bilim ko'nikm va malakalarini shakllantirishda qo'llaniladigan o'qitishning tashkiliy shakllariga elektron darsliklar, seminarlar, forumlar, konsultatsiyalar va boshqalar kiradi.

Elektron darsliklar tegishli server qismlarga joylashtiriladi yoki kompakt disklarda joylashgan bo'ladi. Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga moijallangan bo'lib, ko'piroq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratilishi maqsadga muvofiq. O'quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrash, olingan bilimlami bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlami o'quv adabiyotlardan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak.

## **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. S.A. Haydarov. (2020). O'zbekiston tarixini o'qitishda "Zafarnoma"dan foydalanishni imkoniyatlari. *Science and Education*. 1(7). 192-201 b
2. Sulaymon Amirqulovich Haydarov. (2020). Tarix darslarida integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish. *Science and Education*. 1(8). 666- 671b
3. Haydarov S. (2020). O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashgan holda qo'llashning metodik talablari. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.b
4. Haydarov Sulaymon Amirqulovich. (2020). Tarix fanini o'qitishga oid ekologik muammolar masalasi «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.b
5. S.A. Haydarov. (2020). Tarix darslarida tasviriy san'at asarlaridan foydalanish. *Science and Education*. 1(9). 458-461.b